

**YOSHLAR TAFAKKURINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOY-MADANIY
TEKNOLOGIYALARNING O'RNI
РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ
МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ
THE ROLE OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN ENHANCING YOUTH
THINKING**

Djalalova Nigora Xusanovna

Farg'ona davlat universite

“Musiqiy ta’lim va madaniyat” kafedrası o’qituvchisi

ORCID ID 0000-0003-0280-9957

e.mail: nigoradj55@gmail.com +998913252055

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20829188>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi yoshlar tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o’rni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Muzei, kutubxona va san’at institutlarining yoshlar dunyoqarashi, ijtimoiy xotirasi hamda madaniy identifikatsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so’zlar: yoshlar tafakkuri, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, ijtimoiy xotira, madaniy identifikatsiya, muzei, kutubxona, san’at, ma’naviy taraqqiyot, madaniy meros, ijtimoiy institutlar.

Аннотация. В данном тезисе с социально-философской точки зрения анализируется роль социально-культурных технологий в развитии мышления молодежи. Освещается значение музеев, библиотек и институтов искусства в формировании мировоззрения молодежи, социальной памяти и культурной идентичности.

Ключевые слова: молодежное мышление, социально-культурные технологии, социальная память, культурная идентичность, музей, библиотека, искусство, духовное развитие, культурное наследие, социальные институты.

Abstract. This thesis analyzes the role of socio-cultural technologies in enhancing youth thinking from a socio-philosophical perspective. It highlights the significance of museums, libraries, and art institutions in shaping young people's worldview, social memory, and cultural identity.

Keywords: youth thinking, socio-cultural technologies, social memory, cultural identity, museum, library, art, spiritual development, cultural heritage, social institutions.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar tafakkurini rivojlantirish masalasi jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida namoyon bo’lmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, qadriyatlarga munosabati va fuqarolik pozitsiyasi ko’p jihatdan ular faoliyat yuritayotgan madaniy muhit bilan belgilanadi. Shu sababli yoshlar tafakkurini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o’rni tobora ortib bormoqda¹.

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar jamiyat tomonidan yaratilgan madaniy qadriyatlarni avlodlarga yetkazish, tarixiy xotirani saqlash va shaxsning ma’naviy-intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi vositalar majmuidir. Ularning asosiy vazifasi insonning ijtimoiy tajribani o’zlashtirishi va jamiyatdagi o’z o’rnini anglashiga ko’maklashishdan iborat².

Muzeylar yoshlar tafakkurini yuksaltirishda muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Muzeylarda jamlangan tarixiy va madaniy meros namunalari yoshlarning o’tmish

haqidagi tasavvurlarini boyitadi, tarixiy ongini shakllantiradi hamda milliy identiklikni mustahkamlaydi. Shu ma'noda muzeylar ijtimoiy xotiraning institutsional shakli sifatida faoliyat yuritadi³.

Kutubxonalar esa bilim va axborotning ijtimoiy muomalasini ta'minlovchi markaz sifatida yoshlar tafakkurining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Axborot oqimining keskin ortib borayotgan davrida kutubxonalar yoshlarni ishonchli manbalar bilan ishlashga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Natijada tanqidiy fikrlash va intellektual madaniyat shakllanadi⁴.

San'at institutlari ham yoshlar tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Musiqa, teatr, tasviriy san'at va badiiy adabiyot insonning jamiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, ijtimoiy voqelikni anglashning yangi usullarini taklif etadi. San'at orqali yoshlar umuminsoniy qadriyatlar, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy mas'uliyat mohiyatini chuqurroq idrok etadilar⁵.

Xulosa qilib aytganda, muzeylar, kutubxonalar va san'at institutlari yoshlar tafakkurini yuksaltirishning samarali ijtimoiy-madaniy texnologiyalari hisoblanadi. Ular yoshlarning tarixiy xotirasini boyitish, madaniy identikligini mustahkamlash va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr.
2. Toffler A. *The Third Wave*. New York: Bantam Books, 1980. – B. 367.
3. Assmann J. *Cultural Memory and Early Civilization*. Cambridge University Press, 2011. – P. 36–41.
4. IFLA Trend Report 2023 Update. International Federation of Library Associations and Institutions. – P. 12–15.
5. Bourdieu P. *The Forms of Capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education*. New York, 1986. – P. 241–258.